

Qoraqalpog'istonagi yarmarkada Navoiy bo'limi ishtirok etdi **2021-yilning 17-18-iyun kunlari Nukus shahrida Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar tabiiy va mineral resurslarni qayta ishlash, neft va gaz, kimyo, elektroenergetika, qurilish hamda elektrotexnika sanoatida o'z faoliyatini olib boradigan korxona, tashkilot va kompaniyalarning mahsulotlari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Yarmarkada O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Navoiy bo'limi ham o'z ishlanmalari bilan qatnashdi.**



Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxtining aholisi va mehmonlari Bo'limning quyidagi mahsulotlar namunalari bilan qiziqdilar. Bular "Vaush" konining kvars qumlari, dolomit va bentonitladir. Birinchi noma'dan foydali qazilmani qurilish va shisha sanoatida xom ashyo sifatida qo'llash mumkin. Ikkinchisini - olovbardosh materiallar ishlab chiqarishda keng qo'llanadigan magenxitni olish hamda undan sof magniy ajratib olish uchun. Uchunchisi esa kukunsimon shaklida - yog'larni tozalash va oqartirishda foydalanish uchun.



Shuni ta'kidlash joizki, bentonit namlikni shimib olib saqlaydigan sorbent hisoblanadi. Uning ushbu xususiyati qishloq xo'jaliki ekinlarining o'rugi'larini, ayniqsa chigitni, bentonit kukuni bilan qobiqlab ekish texnologiyasini yaratishga asos bo'ldi. Ushbu konning bentonitini neft-gaz quduqlarini burg'ulashda faol yuvuvchi suyuqliklar sifatida foydalanish ham mumkin.



Bundan tashqari, Bo'lim olimlari tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya yordamida Toshqazgan koni ma'danidan olingan elektrotexnika, metallurgiya va kimyo sanoatida foydalanishga yaroqli bo'lgan grafit namunalari va boshqa

mahsulotlar taqdim etildi.

Ishtirokchilar Bo'limning ishlanmalariga oid barcha savollariga batafsil javob oldilar.

Tadbir so'ngida tantanali ravishda yarmarkani tashkillashtirishdagi faol ishtiroki uchun FA Navoiy bo'limi jamoasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

FA Navoiy bo'limi matbuot xizmati.